

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil 3-son

VOLUME 8 / ISSUE 3 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.3.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 25.09.2024-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli 7,5 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 140.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo‘limi boshlig‘i

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

A. Saidov – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

E. Juchniewicz – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

A. Younas – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

O. Okyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Sh. Asadov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Aminjonova – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

B. Murodov – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Журнал передан в типографию
25.09.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 7,5. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 140.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

В. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

А. Саидов – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Э. Юхневич – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Юнас – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

О. Окюлов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ш. Асадов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Аминжонова – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Рахимов – доктор юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

О. Нарзуллаев – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

В. Муродов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

А. Мухамеджанов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Н. Ниязова – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

The journal is submitted to the printing house on 25.09.2024.
Paper size: A4.
Cond. p.p.7,5. Unit: 100.
Order: 140.
Published in printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

I. Rustambekov – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD MEMBERS

A. Saidov – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

E. Juchniewicz – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

A. Younas – Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Beijing, China)

O. Okyulov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Nematov – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Sh. Asadov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Aminjonova – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Rakhimov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD) (Tashkent, Uzbekistan)

O. Narzullaev – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

B. Murodov – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

A. Muxamedjanov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

N. Niyazova – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 8 **IMAMOVA DILFUZA ISMAILOVNA**
Xalqaro xususiyl huquqda majburiyat munosabatlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish
- 15 **KAN YEKATERINA EDUARDOVNA**
Tibbiyl tashxisda sun'iy intellekt va bemor huquqlarini himoya qilish munosabatlarining huquqiy arxitekturasil

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 22 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda advokat ishtirokining protsessual jihatlaril
- 31 **XURSANOV RUSTAM XOLMURATOVICH**
O'zbekiston Respublikasil fuqarolik huquqida subsidiar javobgarlik masalalari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 39 **SADIKOVA DILAFRUZ RADJABOVNA**
Markaziy Osiyoda tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning huquqiy masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIK LAR NING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 47 **XAYDAROV SHUXRATJON DJUMAYEVICH**
Jinoiy ravishda homila tushirish jinoyati obyektiv tomonining ilmiyl-nazariyl jihatlaril
- 55 **ERMASHEV JENGIS MARATOVICH**
Bojxona sohasidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: ularni o'zaro farqlash masalalari

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО.
СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

8 **ИМАМОВА ДИЛФУЗА ИСМАИЛОВНА**

Совершенствование правового регулирования обязательственных отношений в международном частном праве

15 **КАН ЕКАТЕРИНА ЭДУАРДОВНА**

Правовая архитектура взаимосвязи искусственного интеллекта и защиты прав пациентов при медицинской диагностике

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ХОЗЯЙСТВЕННОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ТРЕТЕЙСКИЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ

22 **ПИРМАТОВ ОТАБЕК ШАВКАТОВИЧ**

Процессуальные аспекты участия адвокатов в гражданском судопроизводстве

31 **ХУРСАНОВ РУСТАМ ХОЛМУРАТОВИЧ**

Вопросы субсидиарной ответственности в гражданском праве Республики Узбекистан

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

39 **САДИКОВА ДИЛАФРУЗ РАДЖАБОВНА**

Правовые вопросы использования возобновляемых источников энергии в Центральной Азии

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

47 **ХАЙДАРОВ ШУХРАТЖОН ДЖУМАЕВИЧ**

Научно-теоретические аспекты объективной стороны преступления аборта в уголовном процессе

55 **ЕРМАШЕВ ДЖЕНГИС МАРАТОВИЧ**

Квалификация преступлений в таможенной сфере: вопросы их взаимной дифференциации

CONTENTS

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 8 **IMAMOVA DILFUZA ISMAILOVNA**
Improving the legal regulation of obligation relations in international private law
- 15 **KAN EKATERINA EDUARDOVNA**
Legal architecture of the relationship between artificial intelligence and the protection of patients' rights in medical diagnostics

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION AND MEDIATION.

- 22 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**
Procedural aspects of lawyers' participation in civil proceedings
- 31 **KHURSANOV RUSTAM KHOLMURATOVICH**
Issues of subsidiary liability in the civil law of the Republic of Uzbekistan

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 39 **SADIKOVA DILAFRUZ RADJABOVNA**
Legal issues of the use of renewable energy sources in Central Asia

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

- 47 **KHAYDAROV SHUKHRATJON JUMAEVICH**
Scientific and theoretical aspects of the objective side of the crime of abortion in the criminal process
- 55 **ERMASHEV JENGIS MARATOVICH**
Qualification of crimes in the customs field: issues of their mutual differentiation

Kelib tushgan / Получено / Received: 27.08.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 17.09.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.09.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.3./PPVJ7791

UDC: 349.6(045)(575.1)

MARKAZIY OSIYODA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY MASALALARI

Sadikova Dilafruz Radjabovna,
Toshkent davlat yuridik
universiteti tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0005-8761-2767
e-mail: pstudy22@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning huquqiy bazasi Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston misolida tahlil etildi. Shuningdek, qo'shni mamlakatlarda ham olib borilayotgan islohotlar natijasida mintaqada ekologik xavfsiz, yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida qabul qilingan qonun hujjatlari tavsiflandi va ularni amaliyotga tatbiq etishning hozirgi kundagi natijalari bayon etildi. Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida energiya samaradorligi va mustaqilligiga erishish beqiyos o'rin tutishi ta'kidlanib, soha rivoji uchun qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlari, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratish, saqlash hamda iste'molchilarga etkazib berish borasidagi istiqbolli rejalar tahliliga ahamiyat qaratildi. Har bir hududning tabiiy resurslar imkoniyati turlicha ekanini inobatga olgan holda ushbu davlatlarning geografik joylashuvi, tabiiy boyliklar zaxiralari, asosan muqobil energiya manbalarini yaratish imkoniyatlari yoritib berildi. Muallif xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan hisobotlardan foydalangan holda mintaqamizning ichki va tashqi imkoniyatlariga ta'rif berarkan, har bir davlatning sohaga oid normativ hujjatlar bazasini o'rgandi. Mamlakatlarning milliy va xalqaro hamkorlik borasida qabul qilingan qonun hujjatlari, yo'l xaritalarini empirik, nazariy va qiyoslash metodlarini qo'llagan holda taqqoslab, tahlil etib, tegishli fikr va mulohazalari, takliflarini bayon etdi.

Kalit so'zlar: tiklanuvchi, muqobil, energiya, yashil iqtisodiyot, ekologik toza, noan'anaviy, energiya samaradorligi.

ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Садикова Дилафруз Раджабовна,
базовый докторант Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. В статье проанализирована правовая база использования возобновляемых источников энергии на примере Таджикистана, Кыргызстана и Туркменистана. Также были охарактеризованы законодательные акты, принятые в ходе поэтапного перехода региона к экологически безопасной, зелёной экономике в результате реформ, проводимых в соседних странах, и изложены современные результаты их внедрения в практику. Подчёркнуто, что достижение энергетической эффективности и независимости занимает неограниченное

место в социально-экономическом развитии стран, уделено внимание анализу законов и подзаконных актов, принятых для развития отрасли, перспективных планов по созданию, хранению и поставке возобновляемых источников энергии потребителям. Учитывая, что природно-ресурсные возможности каждой территории различны, было освещено географическое положение этих государств, запасы природных ресурсов, возможности создания альтернативных источников энергии. Автор изучил отраслевую нормативную базу каждого государства, дав определение внутренним и внешним возможностям нашего региона, используя отчёты, опубликованные международными организациями. Сравнивая и анализируя принятые законодательные акты, дорожные карты стран по национальному и международному сотрудничеству, применяя эмпирические, теоретические и сравнительные методы, он излагает соответствующие мнения и соображения, даёт предложения.

Ключевые слова: возобновляемые, альтернативные, энергия, зелёная экономика, экологически чистые, нетрадиционные, энергоэффективность.

LEGAL ISSUES OF THE USE OF RENEWABLE ENERGY SOURCES IN CENTRAL ASIA

Sadikova Dilafruz Radjabovna,

Basic doctoral student of Tashkent State University of Law

Abstract. The article analyzes the legal framework for the use of renewable energy sources using the examples of Tajikistan, Kyrgyzstan, and Turkmenistan. Also, as a result of the reforms carried out in neighboring countries, the legislative acts adopted in the process of the phased transition to an environmentally safe, green economy in the region were characterized, and the current results of their implementation in practice were described. It was emphasized that achieving energy efficiency and independence plays an important role in the socio-economic development of countries, focusing on the analysis of adopted laws and by-laws and prospective plans for the creation, storage, and supply of renewable energy sources to consumers. Taking into account that the possibilities of natural resources of each region are different, the geographical location of these countries, natural resource reserves, and possibilities of creating mainly alternative energy sources were highlighted. The author, describing internal and external opportunities of our region using reports published by international organizations, studied the base of regulatory documents on the industry of each state. She compared and analyzed the laws and roadmaps adopted by the countries regarding national and international cooperation using empirical, theoretical, and comparative methods and gave her opinions and suggestions.

Keywords: renewable, alternative, energy, green economy, environmentally friendly, unconventional, energy efficiency.

Kirish

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy o'sishi mintaqada elektr energiyasiga bo'lgan talabning ortishi bilan namoyon bo'lmoqda. Zero, energiya har qanday iqtisodiyotning "qon tomiri"dir.

Energiya mamlakatlar rivojining asosiy ustunlaridan biri ekan, u an'anaviy yo'l bilan olinishi natijasida atmosferaga zararli moddalar ajralib, oqibatda mintaqadagi ekotizimga ham katta zarar yetkazmoqda. Yer yuzida

kuzatilayotgan antropogen iqlim o'zgarishlari va tabiatga u yetkazayotgan salbiy oqibatlarni bartaraf etish masalasi kun tartibida ko'ndalang turib qolishi energiya muqobil, tiklanadigan manbalaridan foydalanishga imkon qadar tezlikda o'tish kerakligini anglatmoqda.

Mavjud vaziyatda energiya ta'minoti uzluksiz, tejamkor va tabiatga bezarar bo'lmog'i lozim. Ayni damda yoqilg'ining qazilma turlari – ko'mir, neft, tabiiy gaz va uran –

an'anaviy energiya manbalari sifatida jahon energetika muvozanatining asosi hisoblana-
di. Ushbu qazilma boyliklar vaqti kelib tuga-
shi aniq tabiiy resurs bo'lishi bilan bir qator-
da, ayrim mamlakatlar tomonidan geosiyosiy
dastak sifatida tobora keng ishlatilmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan
foydalanishga o'tish nafaqat ekologik, balki
ko'plab siyosiy muammolarni ham ijobiy hal
qilishga yordam beradi. Muqobil energiya
manbalaridan foydalanishga dunyo miqyosi-
da nazar tashlaydigan bo'lsak, so'nggi yillarda
quyosh fermalari va shamol turbinolari yor-
damida ishlab chiqariladigan yashil energiya
ulushi jahon miqyosida o'sib borayotganini
kuzatamiz. Bu haqda Ember xalqaro tahliliy
markazining rasmiy saytida 2024-yil 8-may-
da e'lon qilingan hisobotida ham aytiladi.

Dunyoning 215 ta mamlakatida olib boril-
gan tahlillarga ko'ra, 2023-yilda barcha toza
energiya manbalarining ulushi global ishlab
chiqarishning 30 foizini tashkil etdi. Ko'mir
energiyasi 36,2 foiz bilan eng katta manba
bo'lib qoldi. Yadro energiyasini ishlab chiqa-
rish 4,7 foizga qisqardi. Rekord yuqori narx-
lar tufayli gazda ishlaydigan elektr energiya-
sini ishlab chiqarish biroz pasayib, 0,2 foiz,
ya'ni 6,3 kVt/soatni tashkil etdi. Hisobotda
aytilishicha, 2022-yilda energetika sohasida
atmosfera zararli gazlar chiqarilishi tarixiy
maksimal darajaga yetgan. Quyosh energiyasi
ketma-ket 19 yil davomida eng tez o'sayotgan
tiklanuvchi energiya manbasi bo'lib kelmoq-
da. Shu asnoda yer yuzida 2023-yilda elektr
energiyasiga global talab oldingi yilga nisba-
tan 2,2 foizga oshgan [1].

Material va metodlar

Maqolada tiklanuvchi energiya manbala-
rining asosan Markaziy Osiyo davlatlari miq-
yosidagi qonunchilik bazalari va o'zaro ham-
korlik doirasida qabul qilingan kelishuvlar,
kelajakdagi istiqbolli rejalar tahlili yoritib
berilgan.

Mavzuni tadqiq qilish asnosida:

1) davlatlar qonunchiligida mavjud qayta
tiklanuvchi energiya manbalaridan foydala-

nishning huquqiy asoslarini o'rganib chiqish-
ga imkon beradigan imperik metod;

2) qo'shni mamlakatlar qonunchiligidagi
qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish-
ning huquqiy asoslarini, nazariya va amali-
yotdagi tajribalarini o'rganib chiqish imkoni-
yatini beradigan tarixiy metod;

3) o'zaro mavjud elementlar majmui sifa-
tida xalqaro qonunchilikdagi qonunlarni qi-
yoslash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

O'z o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki,
Markaziy Osiyo mamlakatlarida tiklanadi-
gan energetikaning rivojlanishi notekis. Ba'zi
davlatlar muqobil energiya manbalaridan
foydalanish yaratib berayotgan imkoniyat-
larni ancha oldindan sinchkovlik bilan ko'rib
chiqishni boshlagan, boshqalari esa yashil
energiyaga o'tish yo'liga endigina qadam
qo'ydi. Jumladan, Osiyo taraqqiyot banki CA-
REC (Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorligi)
tashkilotining "CAREC Energy outlook 2030"
hisobotida mamlakatlardagi energetika
iste'moli va ta'minoti, bozor tendensiyalari,
mintaqaviy hamkorlikka hissa qo'shayotgan
mamlakatlar, shuningdek, rivojlanishdagi
sherikliklarini tahlil qilish orqali mintaqaning
energetika sohasidagi kelajagiga tanqidiy
baho berilgan [2].

Taqqoslash uchun olib qaraydigan
bo'lsak, Markaziy Osiyoning eng katta davla-
ti – Qozog'istonda bu masalaga ko'p yillardan
buyon yetarlicha e'tibor qaratib kelinmoqda,
O'zbekistonda ham qayta tiklanadigan ener-
giya manbalari, shamol generatorlari, quyosh
panellari va RES sohasida faol ishlar olib bo-
rilmoqda. Tojikiston va Qirg'izistonda ular
asosan gidroenergetikaga to'g'ri keladigan
bo'lsa, Turkmaniston esa muqobil energiya
sohasiga oxirgi bir necha yillarda e'tibor bera
boshladi.

Xususan, E. Shadrinaning 2020-yilda
chop etilgan Markaziy Osiyoda qayta tik-
lanuvchi energiya manbalarining istiqboli
bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga
yuzlanadigan bo'lsak, asosan Qozog'iston

misolida energetika tizimi va yashil energiyaga o'tishning to'liq tahlili bayon etilgan. Qirg'iziston va Tojikiston misolida esa asosan katta va kichik gidroenergetika inshootlari yashil manbalar sifatida yoritib berilgan. O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining yaratilishi Qozog'istondan keying o'rindaligi ta'kidlanib, Turkmaniston bo'yicha cheklangan ma'lumotlar taqdim etilgan [3].

Markaziy Osiyo universiteti hamda Davlat boshqaruvi akademiyasining "Markaziy Osiyoda qayta tiklanuvchi energiya: salohiyat, foydalanish, istiqbollar va to'siqlar" nomli 2022-yildagi hisobotida mintaqaning beshta davlati misolida aniq, keng qamrovli, har tomonlama va to'liq tahlil bayon etilgan. Tahlilda soha amaliyotchilari, siyosatchilar va olimlar o'z qarashlari va ilmiy izlanishlari natijalari bilan bo'lishganlar [4].

Tadqiqot natijalari tahlili

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish sohasini *Tojikiston* misolida ko'radigan bo'lsak, mamlakat gidroenergetika borasida ulkan salohiyatga ega bo'lib, mintaqada davlatlari orasida eng yuqori o'rinda turadi. Respublikada gidroenergetika resurslari zaxiralari yiliga 527 mlrd kVt/soatni tashkil etadi. Tojikistonda elektr energiyasining 95 foizi gidroelektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. Mamlakat yashil energiya ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda oltinchi o'rinda turadi. Hatto o'tgan yili Tojikistonda bu bo'yicha rekord o'rnatildi. O'tgan 30 yilda mamlakatda 287 ta yirik va kichik gidroelektrostansiya, 50 ta podstansiya qurilib, modernizatsiya qilindi, energetika infratuzilmasining 75 foizi rekonstruksiya qilindi. Shu bilan birga, respublikada quyosh va shamol energetikasi deyarli rivojlanmayapti, biroq bu yo'nalishda, shuningdek, geotermal energiya va bioenergetika sohasida ham yangi qadamlar rejalangan [3].

Tojikistonda yashil energiya bo'yicha bir qancha muhim strategik rivojlanish hujjatlari ishlab chiqilgan bo'lib, Tojikiston Respublika-

sining 2010-yil 12-yanvarda qabul qilingan 587-sonli "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonuni mamlakatda yashil energiyaga o'tish yo'lidagi huquqiy asos vazifasini o'tadi. Ushbu Qonunda mamlakatda energiyani tejashning tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy asoslari, an'anaviy usulda energiya yaratish hajmini kamaytirish evaziga atrof-muhit hamda iqlimga salbiy antropogen ta'sir darajasini pasaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, davlat organlarining vakolatlari, jismoniy va yuridik shaxslarning qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi huquqlari, majburiyatlari belgilab berildi. Keyinchalik ushbu hujjatga 2015-yil 23-noyabrda va 2022-yil 19-iyulda qo'shimcha hamda o'zgartirishlar kiritildi.

Tojikiston Oliy Majlisi tomonidan 2013-yil 29-avgustda qabul qilingan "Energeyani tejash va energiya samaradorligini oshirish" to'g'risidagi 560-sonli qonun sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soldi. Shuningdek, energiya tejamkorligi, samaradorligini oshirishni, ishlab chiqarish, sanoat, iqtisodiyot hamda maishiy sohalarda qayta tiklanuvchi energiya hisobiga texnologik xavfsiz va ekologik toza o'tish shartlari, yoqilg'i-energetika resurslari va mahsulotlaridan oqilona foydalanish tartibini belgiladi [5].

2016-yil 1-dekabrda Tojikiston Respublikasida mamlakat Oliy Majlisining 636-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tojikiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan davrdagi milliy rivojlanish strategiyasi" qabul qilindi. Ushbu hujjat 2015-yil 25-sentabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan e'lon qilingan, dunyodagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali butun insoniyatning turmush tarzi hamda farovonligini oshirishga, adolatli, barqaror jamiyat qurishga qaratilgan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" [6] asosida ishlab chiqildi.

Tojikiston rivojlanish yo'lidagi strategiya asosida uzoq muddatli rivojlanishining eng yuqori maqsadi sifatida davlatning iqtisodiy

o'sishi orqali mamlakat aholisining turmush darajasini oshirish va barqaror rivojlanishni tanlagan. Bunga erishish uchun esa bir qancha strategik maqsadlar belgilangan. Energiya xavfsizligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida energiya ishlab chiqarish manbalarini diversifikatsiya qilish, noan'anaviy foydalanish uchun texnik imkoniyatlar yaratish, (tiklanadigan) energiya manbalarini (quyosh, shamol, biologik, geotermik) qurish, mavjudlarini modernizatsiya qilish va yangi GES va IES qurilishi, energiya xavfsizligini ta'minlash, elektr energiyasidan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish shular jumlasidan [7].

Xususan, respublikada o'tgan yillar mobaynida tiklanuvchi energiya manbalarini yaratish, undan tarmoqqa ulanishni, hisobga olishni, uzatishni, soliqni tartibga soluvchi bir qator qonunosti hujjatlari ham shakllantirildi. Olib qishloq aholi punktlarida quyosh panellarini o'rnatish bo'yicha texnik-iqtisodiy asoslash ishlari olib borildi. Lekin shunga qaramay, sohaga oid qabul qilingan qonun hujjatlari o'rtasidagi individual nomuvofiqliklar va jiddiy kamchiliklar mavjud.

Gidroenergetika zaxiralari bo'yicha *Qirg'iziston* Tojikistondan keyin ikkinchi o'rinda turadi, mamlakatda bir qancha GESlar ishlaydi, lekin potensialning atigi 10 foizidan foydalaniladi. Hozirgi kunning dolzarb masalasi – antropogen iqlim o'zgarishini hisobga oladigan bo'lsak, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi suv tanqisligidan kelib chiqqan holda respublikada muqobil energiya manbalarining boshqa turlarini rivojlantirishi maqsadga muvofiq bo'lardi. Zero, *Qirg'izistonda* geografik joylashuviga ko'ra muqobil energiya manbalarining ko'plab turlarini yaratish imkoni bor.

Qayta tiklanadigan energetika, xususan, quyosh va shamol energiyasi *Qirg'iziston* Respublikasi uchun nisbatan yangi elektr manbalari hisoblanadi. Qayta tiklanadigan energetikaning asosiy qismi respublikada kichik gidroelektr stansiyalar hissasiga to'g'ri

keladi. Shu bilan birga, bugungi kunga qadar *Qirg'izistonda* biror-bir quyosh yoki shamol elektr stansiyasi qurilmagan bo'lsa-da, quyosh va shamol energiyasi sohasida amalga oshirish bosqichidagi bir nechta potensial loyihalar mavjud, ularning barchasi Issiqko'l viloyatida to'plangan.

Qirg'iziston Respublikasining "2008–2010-yillarga mo'ljallangan milliy energetika dasturi" va *Qirg'iziston* Respublikasi Jo'qorg'i Kengashining 2008-yil 24-apreldagi 346-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2025-yilgacha yoqilg'i-energetika kompleksini rivojlantirish strategiyasi" hamda 2022-yil 30-iyunda qabul qilingan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida"gi Qonuni respublikadagi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning huquqiy asoslarini tashkil qiladi.

Hozirgi vaqtda mamlakatning qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan amaliy foydalanishi energiya balansida 1 foizdan kam ulushni tashkil etadi. Afsuski, Milliy energetika dasturi quyosh, shamol energetikasiga yetarlicha e'tibor bermaydi, faqat gidroelektr stansiyalarga e'tibor qaratadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublika hududida o'rganilgan 172 ta daryo va suv oqimlarining umumiy gidroenergetika salohiyati, suv sarfi 0,5 dan 50 kubometrgacha, yiliga 80 mlrd kVt/soatdan oshadi, shundan texnik jihatdan rivojlanish uchun maqbuli yiliga 5–8 mlrd kVt/soatni tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki mamlakatda qo'shimcha energiyaga, aniqrog'i, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratishga ehtiyoj bor.

Ayni damda Issiqko'l viloyatida *Qirg'izistonda* birinchi 100 MVt quvvatga ega shamol elektr stansiyasi qurilmoqda, shuningdek, u yerda 300 MVt quvvatga ega birinchi quyosh elektr stansiyasi ham qurila boshladi. Joriy yilning yanvar oyida *Qirg'iziston* Qozog'iston va O'zbekiston bilan birgalikda Qambarota GES-1ni qurish bo'yicha keli-shuvga erishdi – loyiha muvaffaqiyatli yakunlangach esa respublikadagi eng yirik elektr stansiyasiga aylanishi kutilmoqda.

Strategik darajada Qirg'iziston "2040-yilgacha Milliy rivojlanish strategiyasi"ni, "2040-yilgacha Barqaror rivojlanish strategiyasi"ni va "Yashil rivojlanish strategiyasi"ni ishlab chiqdi. Vaholanki, respublikada "Milliy energetika dasturi" 2008-yilda qabul qilingan bo'lib, unda qayta tiklanadigan energiya manbalariga qo'shimcha tariflar uchun qonunchilik bazasi ishlab chiqilgan. Shunga qaramay, hisob-kitoblar normativ hujjatlar asosida tartibga solinmagan, yer ajratish va soliqa tortish borasida ba'zi noaniqliklar mavjud. Lekin Qirg'iziston qo'shni davlatlar hamda Xitoy, Rossiya va Armaniston bilan hamkorlikda yashil energiyaga o'tish jarayonida jadal ishtirok etmoqda.

Jumladan, Qirg'izistonda qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasida yanada ekzotik loyihalar amalga oshirilmoqda: xususan, 2023-yil dekabr oyida Chakan gidroelektr stansiyasining kunlik tartibga soluvchi havzasida joylashgan respublikadagi birinchi suzuvchi quyosh elektr stansiyasini yaratish ishlari yakunlandi. GES va quyosh elektr stansiyasining bunday kombinatsiyasi har ikkala turdagi elektr energiyasini ishlab chiqarishga xos bo'lgan energiya ishlab chiqarishdagi tebranishlarni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, suzuvchi quyosh elektr stansiyalari dehqonchilik uchun qulay maydonlarni egallamaydi, chunki ular suv tizimi inshootlarida joylashgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, 2023-yil dekabr oyida Xitoy kompaniyalari bilan respublikada birinchi quyosh panellari zavodini yaratish bo'yicha muzokaralar boshlandi.

Huquqiy sohada ham tiklanadigan elektr energiyasini rivojlantirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda: masalan, 2023-yil dekabr oyida Qirg'iziston Energetika vazirligi quyosh va shamol energiyasi obyektlarini qurish uchun davlat yerlarini tekinga berishni taklif qilgan. Shu bilan birga, qurilish tashkilotlari zimmasiga o'zlari qurayotgan loyihalarning tom qismiga quyosh batareyalarini o'rnatish majburiyatini kiritish taklifi ilgari surilmoqda [8].

Ko'rinib turibdiki, Qirg'iziston ham yashil energetikaga o'tish borasida jadal sa'y-harakatlarni boshladi.

Turkmaniston gaz va asosan tabiiy gazdan ishlab chiqariladigan elektr energiyasi eksporti bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi o'rinni egallaydi. O'tgan yili respublikada 2022–2028-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha prezident dasturi tasdiqlanib, uning doirasida respublikada kelajakda qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy etish, jumladan, quyosh panellarini mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish rejasi tuzilgandi. Turkiyaning "Chalik Enerji Sanayi ve Ticaret A.S" kompaniyasi Turkmanistonda 2024-yilgacha quvvati 10 MVt bo'lgan gibril quyosh-shamol elektr stansiyasini qurilishi reja qilgan. Elektr stansiyasi qurilishi uchun Abu-Dabi taraqqiyot jamg'armasi tomonidan 25 mln dollarlik kredit ajratilgan. O'tgan yili Turkmaniston Masdar bilan 100 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyasini qurish bo'yicha kelishib olgan edi. Respublika hukumati vodorod sanoatiga ham sarmoya kiritishni rejalashtirmoqda [9].

Biroq mintaqaning qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish bo'yicha yuqori va hali ham to'liq foydalanilmayotgan salohiyatini hisobga olgan holda, 2050-yilga borib nol emissiyaga erishish 30 yil davomidagi umumiy energiya investitsiyalarining minimal o'sishini 2,15 foizga olib keladi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, qazib olinadigan yoqilg'iga hozirgi qaramlikdan nolg'a o'tish qayta tiklanadigan energiya manbalariga investitsiyalarni sezilarli darajada yo'naltirishni talab qiladi, lekin bu yiliga 0,07 foiz minimal qo'shimcha xarajatlar bilan amalga oshirilishi mumkin.

2050-yilga borib, siyosatda asosli qarorlar qabul qilinsa va investitsiyalarni qayta yo'naltirish uchun tegishli rag'batlar shakllantirilsa, mintaq'a uglerod emissiyasini nolg'a tenglashtirishi mumkin.

Xulosalar

Mintaqadagi barcha davlatlar energetika quvvatini oshirish strategiyasini ishlab chiqqan bo'lsa-da, Markaziy Osiyo mamlakatlari yetarlicha jadal harakat qilmayapti. Davom etayotgan energetika inqirozi sharoitida tiklanadigan energetikani rivojlantirish Markaziy Osiyo mamlakatlariga nafaqat energiyaga o'sib borayotgan talabni qondirishda, balki an'anaviy usulda energiya olinishi oqibatida atrof-muhitga yetkazilayotgan salbiy ta'sirlarning oldini olishda ham yordam beradi.

Fikrimizcha, yuqorida ko'rib o'tilgan mamlakatlardagi aholi salomatligi, barqaror rivojlanish va iqtisodiy o'sish parametrlarini ko'tarish maqsadida muqobil energiya manbalaridan foydalanishga o'tishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash sohaning institutsional rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, soha rivoji uchun o'zaro hamkorlik borasida qabul qilinayotgan kelishuv hujjatlari, alohida mamlakatlarning tabiiy va iqlim sharoitidan kelib chiqib qabul qilinayotgan qonun hamda qonunosti hujjatlari mintaqaning yashil energetika tizimiga o'tishida muhim rol o'ynashi, shubhasiz.

"Tahlillarimiz Markaziy Osiyoning beshta davlatida qayta tiklanadigan energiya manbalarining katta salohiyatiga ishora qilmoqda", – deydi BMT EIK Ijrochi kotibi Olga Algaerova [9]. U yana shuni ta'kidlaydi: "2050-yilga kelib, investisiyalarni qayta yo'naltirish uchun oqilona siyosat qarorlari qabul qilinsa va tegishli rag'batlar mavjud bo'lsa, mintaq

uglerod chiqindilarini nolga tenglashtirishga erisha oladi. Men Markaziy Osiyo hukumatlarini energiya xavfsizligini ta'minlash va yashil ish o'rinlarini yaratish bilan birga, o'z majburiyatlarini bajarish uchun ushbu imkoniyatdan foydalanishga chaqiraman".

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2022-yil uchun qayta tiklanadigan energiya manbalar holati to'g'risidagi hisobotiga ko'ra, Markaziy Osiyo mamlakatlarida asosan quyosh va shamol energiyasi hisobiga bunday energiya quvvatining misli ko'rilmagan o'sishi kuza-tilmoqda.

Mintaqaviy birdamlikka erishish Markaziy Osiyo mamlakatlarida muqobil energiya manbalaridan foydalanish jarayonini tezlashtiradi. Ekologik muvozanatni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi masalalar Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari uchun dolzarb. Tabiatda siyosiy chegaralar bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda: yashil energetika tizimi yoki atrof-muhitga ziyon yetkazmaydigan ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishdan nafaqat Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston, balki qo'shni mamlakatlar ham yutadi. Shu nuqtayi nazar-dan umummanfaatli strategik rejalarga tayanib, birgalikda harakat qilingani ma'qul. Endi soha rivoji uchun huquqiy hamda institutsional poydevor hozirlab, lokal loyihalarni amalga oshirishga kirishmoq lozim. Bu borada yashil iqtisodiyotni muvaffaqiyatli joriy eta olgan Skandinaviya mamlakatlari tajribasini o'rnak qilib ko'rsata olamiz.

REFERENCES

1. Global Electricity Review. 2024. Available at: <https://ember-climate.org/insights/research/global-electricity-review-2024/>
2. CAREC Energy Outlook. 2030. Available at: <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/850111/carec-energy-outlook-2030.pdf>
3. Shadrina E. Renewable Energy in Central Asian Economies: Role in Reducing Regional Energy Insecurity. Tokyo, *ADB Working Paper*, 2019, no. 993. Asian Development Bank Institute.

4. Laldjebayev M., Isayev R., Sauximov A. Vozobnovlyayemye istochniki energii v Sentralnoy Azii: potentsial, ispolzovaniye, perspektivy i baryery [Renewable Energy in Central Asia: Potential, Utilization, Prospects and Barriers]. Report 71 2022. Available at: <https://ucentralasia.org/media/ucflputa/uca-ippa-wp71vozobnovlyaemie-istochnikirus.pdf>
5. Hydropower resources of Tajikistan. Ministry of Energy and Water Resources of the Republic of Tajikistan. Available at: https://www.mewr.tj/?page_id=614
6. Law of the Republic of Tajikistan on Energy Saving and Energy Efficiency. Available at: https://www.mewr.tj/wp-content/uploads/files/Konun_sarfajui_energet.pdf
7. Volker R. Evropa na puti energeticheskogo soyuza [Towards a European Energy Union]. *European Energy Strategy in International Law*. Cambridge, University Press, 2018, p. 148.
8. National development strategy of the Republic of Tajikistan until 2030/ Dushanbe, Kontrast, 2016, No. 636. The Supreme Assembly of the Republic of Tajikistan.
9. Vozobnovlyayemye istochniki energii v Kyrgyzstane: zelyonoye budushshee Tsentral'noy Azii [Renewable Energy in Kyrgyzstan: Green Future for Central Asia]. 2024. Available at: <https://journal-neo.su/ru/2024/06/03/vie-v-kyrgyzstane-zelyonoe-budushshee-czentralnoj-azii/>
10. Perspektivy razvitiya zelyonoy energetiki v Tsentral'noy Azii [Prospects for green energy in Central Asia]. *Caucasus Bulletin*. Available at: <https://vestikavkaza.ru/analytics/perspektivy-razvitiya-zelenoj-energetiki-v-centralnoj-azii.html> (accessed at 01.02.2023).
11. UN calls on Central Asian countries to make major energy leap. Available at: <https://news.un.org/ru/story/2023/04/1440182>
12. Law of the Kyrgyz Republic on Renewable Energy Sources. 2022, No. 49. Available at: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=32890073&pos=4;-88#pos=4;-88
13. Narzullayev O.X. Barqaror rivojlanishda yangi energiya texnologiyalari va energetika huquqining retrospektiv qiyosiy tahlili [A retrospective comparative analysis of new energy technologies and energy law in sustainable development]. *Application of green energy in practice: achievements and problems: Proceedings of the Republican Scientific and Practical Conference*. Tashkent, TSUL, 2023.
14. Bradbrook A.J., Lyster R., Ottinger R.L., Xi W. The Law of Energy for Sustainable Development. *Towards IUCN Academy of Environmental Law Research Studies*. Cambridge, University Press, 2005.
15. Gorodov O.A. Vvedeniye v energeticheskoe pravo [Introduction to Energy Law]. Moscow, Prospekt Publ., 2012.
16. Toshbayeva R. Mezhdunarodno-pravovoy aspekt obespecheniya dostupa k ekologicheskoy informatsii i voprosy eyo implementatsii [International legal aspect of ensuring access to environmental information and issues of its implementation]. Tashkent, *Review of Legal Sciences*, TSUL, 2020, vol. 3.
17. Narzullayev O. Energetika huquqi [Energy Law]. Tashkent, TSUL, 2021.
18. Xolmuminov J.T. Energetika huquqi [Energy Law]. Tashkent, Baktaria Press, 2022.
19. Radjabov N.Sh. Ishlab chiqarish ekologik nazoratini tartibga solish [Regulation of environmental control of production]. TSUL, 2022.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2024-yil 3-son

VOLUME 8 / ISSUE 3 / 2024
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.3.